

INTERACTIVE READING LUG‘AT O‘RNINI BOSUVCHI METODLAR

Dilobar Azimova*Lecturer at the Department of World Languages, Kokand University***Muhammedova Ziyodaxon***Student at Kokand University*

Annotatsiya Ushbu maqolada ingliz tili o‘rganuvchi o‘quvchilar o‘rtasida keng tarqalgan "lug‘at tuzog‘i" va uning o‘qish ko‘nikmasiga ta’siri tadqiq etiladi. Tadqiqotning maqsadi — lug‘atga haddan tashqari qaramlikni kamaytirish va o‘quvchilarda kontekstual tahlil ko‘nikmalarini shakllantirishdir. Maqolada morfologik dekonstruksiya, sintaktik pozitsiya tahlili va kontekstual ishoralar kabi interaktiv metodlar taklif etilgan. B2 darajasidagi talabalar ishtirokida o‘tkazilgan tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, interaktiv strategiyalarni qo‘llash o‘qish tezligini sezilarli darajada oshiradi va so‘zlarni uzoq muddatli xotirada saqlash koeffitsiyentini yaxshilaydi.

Kalit so‘zlar Lug‘at tuzog‘i, interaktiv o‘qish, kontekstual tahlil, morfologik dekonstruksiya, o‘qish samaradorligi, kognitiv yuklama.

Abstract: This article explores the phenomenon of the "dictionary trap" among English language learners and its impact on reading efficiency. The study aims to reduce excessive dependence on dictionaries and develop contextual analysis skills in students. The paper proposes interactive methods such as morphological deconstruction, syntactic position analysis, and contextual clues. The results of a quasi-experimental study involving B2-level students demonstrated that the application of interactive strategies increases reading speed by 54% and significantly improves the long-term retention rate of newly encountered vocabulary.

Keywords Dictionary trap, interactive reading, contextual analysis, morphological deconstruction, Paul Nation, reading efficiency, cognitive load.

KIRISH

Zamonaviy ta’limda ingliz tilini o‘rganish akademik va shaxsiy rivojlanishning asosiy va muhim qismidir va o‘z navbatida til o‘rganuvchilarning asosiy muammolari o‘qish (reading) ko‘nikmasini rivojlantirishda o‘ziga xos to‘siqlar mavjudligidir. Shu to‘siqlarning ichida eng kop uchraydigani "lug‘at tuzog‘i" (Tarjimaga qaramlik). Ushbu fenomen o‘quvchining matn mutolaasi davomida har bir notanish leksemaga duch kelganda lug‘atga bog‘lanib qolishi bilan izohlanadi.

Psixolingvistik nuqtayi nazardan, lug‘atdan doimiy foydalanish o‘quvchining "ishchi

xotirasi"ga ortiqcha bosim beradi. shu sababli, matnning kognitiv yaxlitligi buziladi oqibatda esa o‘quvchi gaplar o‘rtasidagi mantiqiy bog‘liqlikni yo‘qotadi. Krashen va Nation ta’kidlaganidek so‘z ma’nosini kontekst orqali anglash nafaqat o‘qish tezligini oshiradi, balki so‘zning uzoq muddatli xotirada saqlanishini ta’minlaydi.

Odatdagidek o‘qish metodlarida lug‘at asosiy "tayoqcha" vazifasini o‘taydi, va bu o‘quvchini passiv qabul qiluvchiga aylantirib qo‘yadi. Ushbu tadqiqot o‘quvchini passiv holatdan aktiv "detektiv" holatiga o‘tkazish, ya’ni lug‘atsiz ham ma’noni tiklash imkoniyatlarini ko‘rsatib berish uchun zarurdir. Ayniqsa, IELTS kabi vaqti cheklangan xalqaro imtihonlarda har bir so‘zni tarjima qilish imkoniyati yo‘qligi muammoni yanada dolzarblashtiradi. Mashhur leksikolog Pol Nation "Inferring from context" (kontekstdan ma’noni chiqarish) metodini eng samarali deb hisoblaydi. U lug‘atga har safar qarash o‘rniga, so‘zni "taxmin qilish" miyada kuchliroq neyron bog‘lanishlar hosil qilishini isbotlagan. Ammo hozirgi o‘quv dasturlarida so‘z yodlashga katta urg‘u beriladi va so‘zni "kontekstual taxmin qilish" (contextual guessing) va morfologik analiz qilish ko‘nikmalari etiborgs olinayapti. natijada O‘quvchilar ko‘pincha so‘zning o‘zagi, prefiks va suffikslari orqali ma’noni mantiqiy chiqarishni bilmaydilar. Ushbu tadqiqot aynan "lug‘atga qaramlik" va "mustaqil tahlil" o‘rtasidagi bo‘shliqni to‘ldirishga va ularda detektivlik qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan bundan tasghqari "morfologik-sintaktik gibril tahlil" metodini taklif etadi.

METODOLOGIYA

Ushbu tadqiqotda o‘quvchilarning reading jarayonida lug‘atga qaramligini kamaytirish va mustaqil tahlil ko‘nikmalarini shakllantirish maqsadida kvazi-eksperimental yondashuvdan foydalandim. Metodologiya asosan Pol Nation (2001) tomonidan taklif etilgan "kontekstual taxmin qilish" (contextual guessing) va Stiven Krashening "tabiiy o‘zlashtirish" nazariyalaridan foydalanildi. Bu asosiy 3 bosqichdan iborat.

1. Tanlanma va materiallar

ingliz tili darajasi Intermediate bo‘lgan 28 nafar talaba ishtirok etdi. Ular tasodifiy tarzda ikki guruhga A va B guruhlariga ajratildi. A guruh Nazorat guruhi lug‘at bilan ishlashadi. B guruh Eksperimental guruh Interaktiv readingni o‘rganishadi va lug‘atsiz tahlil qilishadi. Cambridge IELTS 15-18 darsliklaridan akademik matnlar material sifatida tanlab olindi va matnlarni B guruh bilan quyidagi usullar yordamida tahlil qilindi

2. Tadqiqot instrumentlari: Interaktiv strategiyalar

Eksperimental guruhga lug‘at o‘rnini bosuvchi quyidagi uchta maxsus metodika o‘rgatildi:

2.1 Morfologik xaritalash

O‘quvchilar murakkab so‘zlarni prefiks, o‘zak va suffikslarga ajratish orqali tahlil qildilar.

masalan: "Indestructible" so‘zi: in- (inkor) + destruct (buzish) + -ible (sifat yasovchi/imkoniyat). Lug‘atsiz "buzib bo‘lmaydigan" ma‘nosi paydo bo‘ldi

2.2 Sintaktik pozitsiya tahlili

So‘zning gapdagi o‘rniga qarab turkumini aniqlash.

Qoida: Agar notanish so‘z "The" va "of" o‘rtasida kelsa, u albatta Ot (Noun) bo‘ladi va bu o‘quvchiga umumiy ma‘no yo‘nalishini topishga yordam beradi.

2.3 Kontekstual "Deduksiya

Gapdagi mantiqiy ishoralarni topish:

Contrast clues: "Although", "but", "however" kabi so‘zlar orqali notanish so‘zning zid ma‘nosini topish.

Example clues: "Such as", "including" kabi so‘zlardan keyin kelgan misollar orqali notanish terminni tushunish.

3. Ma‘lumotlarni yig‘ish va o‘lchash

Tadqiqot davomida quyidagi parametrlar o‘lchandi:

O‘qish tezligi : Matni o‘qishga ketgan umumiy vaqt.

Tushunish koeffitsiyenti : Matn bo‘yicha berilgan 10 ta savolga to‘g‘ri javoblar soni.

Dunyodagi eng mashhur leksikolog Pol Nation ko‘plab tadqiqotlarida aynan shunday metodlardan foydalangan.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, "lug‘at tuzog‘i" dan chiqish uchun faqat nazariy bilim yetarli emas . O‘quvchilarda matni mustaqil tahlil qilish ko‘nikmasini shakllantirish uchun o‘qituvchilarga dars jarayonida quyidagi bosqichma-bosqich mashqlarni amalyotga kiritish tavsiya etiladi.

1. "Context Clue Hunting" ya‘ni Kontekstual ishoralar ovi

Ushbu metodda talabalarga matn beriladi, biroq ularning vazifasi so‘zning tarjimasini topish emas, balki o‘sha so‘z atrofidagi kalit ishoralarni aniqlashdan iborat. Masalan, agar matnda "The city was vibrant, full of life and energy" jumlasida kelsa o‘quvchi "full of life and energy" qismini "vibrant" so‘zi uchun ishora sifatida belgilashi yoki tahmin qilishi kerak. Bu mashq miyani tayyor ma‘lumotni kutishdan to‘xtatib, mantiqiy bog‘liqliklarni qidirishga o‘rgatadi va ko‘proq harakatga undaydi.

2. "The Three-Minute Rule" ya‘ni Uch daqiqalik qoida

O‘qituvchi o‘quvchilarga matnning bir qismini o‘qish uchun 3 daqiqa vaqt beradi va bu vaqt davomida lug‘atdan foydalanishni qat‘iyan taqiqlaydi, studentlar umuman lug‘atdan foydalanishmaydi. O‘quvchilar tushunmagan so‘zlari ostiga chizib belgilab ketishadi, lekin to‘xtashmaydi so‘zga ko‘p vaqt sarflashmaydi. Vaqt tugagach, guruh bo‘lib o‘sha so‘zlarning ma‘nosini gapning umumiy mazmunidan, gapdagi o‘rni va vazifasidan kelib chiqib

muhokama qilishadi. Bu usul o'quvchida "har bir so'zni bilish shart emas" degan psixologik to'siqni yengishga yordam beradi.

3. Morfologik tahlil o'yinlari (Suffix & Prefix Relay)

Ingliz tili lug'at boyligining 60% dan ortig'i lotin va grek o'zaklaridan tashkil topgan. O'qituvchi darsda o'quvchilarga "un-", "dis-", "re-", "-able", "-tion" kabi affikslarning ma'nosini o'rgatishi, so'ngra matndagi murakkab so'zlarni "konstruktor" kabi qismlarga ajratish mashqini o'tkazishi lozim. Masalan, "Incomprehensible" so'zini ko'rganda o'quvchi qo'rqmasdan, uni in- (inkor) comprehend (tushunish) -sible (imkoniyat) qismlariga ajratib, "tushunib bo'lmaydigan" ma'nosini mustaqil chiqaradi.

4. Gipotezani tekshirish (The Prediction Table)

O'quvchilar jadval yaratishlari va uni quyidagi kabi qismlarda to'ldirish topshirig'i beriladi:

1 Notanish so'z: notanish so'zlarni matndan topib yozib chiqishadi. Masalan Deteriorate.

2 Mening taxminim: ma'nosini tahmin qilaoladigan so'zlarni yozishadi Masalan environmently friendly o'quvchi environment so'zi muhit manosi anglatishini bilsa buning ham ma'nosini tahmin qila oladi.

3 Ishora (Clue): "The weather became worse" worse so'zi wheatherni holatiga ishora qilyapti.

4 Lug'atdagi aniq ma'nosi: (Faqat dars oxirida tekshiriladi)

Ushbu metodika o'quvchini passiv axborot qabul qiluvchidan aktiv tadqiqotchi detektivga aylantiradi. Pol Nation ta'kidlaganidek, so'zni "taxmin qilish" uchun sarflangan intellektual energiya o'sha so'zning xotirada 3 baravar kuchliroq saqlanishiga va abadiy muhrlanishini ta'minlaydi.

NATIJALAR

Natijalar shuni ko'rsatdiki, B guruh o'quvchilari interaktiv metodni qo'llaganlar matnni tezroq o'qishdi, savollarga javob berishda ham yuqori natija ko'rsatishdi.

A ya'ni Nazorat guruhida lug'atdan foydalanish har doim o'rtacha 20-30 soniya vaqt olgan bundan tashqari lug'atga doimiy murojaat qilish nafaqat vaqtni o'g'iraydi, balki o'quvchining psixologik holatiga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi. Psixolingvistik tadqiqotlar matn o'qish jarayonida har bir notanish so'zda to'xtash "kognitiv uzilish" (cognitive dissonance) hosil qilishini takidlaydi. Eksperimental guruhda kontekstual tahlil uchun bor-yo'g'i 5-10 soniya sarflandi va kognitiv uzilishlar mutlaqo qayd etilmadi. Shu bilan birga ishchi xotira (Working Memory) yuklamasi ham muhim jihatlardan biridir. Inson miyasining ishchi xotirasi bir vaqtning o'zida cheklangan miqdordagi ma'lumotni qayta ishlay oladi. O'quvchi lug'atga qaraganida, uning diqqati matn mazmunidan so'zning texnik tarjimasiga o'tadi. Natijada u gapning boshidagi ma'noni unutadi. Bu esa "o'qib tushunish" zanjirining

uzilishiga olib keladi. Interaktiv reading metodi esa ishchi xotirani matnning umumiy semantik (ma’noviy) maydonida ushlab turadi. Shu bilan birga lug‘atdan foydalangan o‘quvchilar ko‘pincha so‘zning birinchi ma’nosini olishgan va bu ma’no matn kontekstiga doim ham tushmaganligi ularni yanada ko‘proq fikrlashga va vaqt yuqotishga sabab bulgan. Eksperimental guruh esa so‘zning kontekstual ma’nosini aniqroq topishdi. 1 haftadan so‘ng o‘tkazilgan kutilmagan test natijasiga ko‘ra kontekst orqali ma’nosini topgan o‘quvchilar so‘zlarning 65% qismini eslab qolishgan. Lug‘atdan shunchaki tarjimasini ko‘rgan o‘quvchilarda esa bor-yo‘g‘i 30% ni tashkil etdi.

Muhokama

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, "Lug‘at tuzog‘i" o‘quvchining nafaqat o‘qish tezligini pasaytiradi, balki uning matni yaxlit idrok etish qobiliyatini ham chekladi. Nazorat guruhida kuzatilgan past ko‘rsatkichlar Pol Nation (2001) ta’kidlaganidek, lug‘atga haddan tashqari qaramlik miyaning tahliliy funksiyasini "bloklab" qo‘yishi bilan izohlanadi. Shuning uchun ham amaliy strategiyalar va mashqlar o‘quvchilar uchun zaaur.

Eksperimental guruhning yuqori natijalari esa aynan shu amaliy mashqlar va mashg‘ulot vaqtida ular o‘zlarida shakllantirgan ko‘nikmalar bilan bog‘liq. Kognitiv faollik: O‘quvchi so‘z ma’nosini lug‘atdan "tayyor" holda olmagan sababli, uning miyasi deduktiv tahlil o‘tkazishga majbur bo‘ldi. Bu esa so‘zning xotirada uzoq muddatli saqlanishini (long-term retention) ta’minladi, o‘quvchi esa o‘zida detektivlik qobiliyatini rivojlantirdi.

Kontekstual bog‘liqlik: Stiven Krashen nazariyasiga muvofiq, so‘zlar matn ichida "tabiiy" o‘zlashtirildi. Bu esa o‘quvchiga so‘zning nafaqat tarjimasini, balki uning qaysi so‘zlar bilan birga kelishi (collocation) va uslubiy xususiyatlarini ham his qilish imkonini berdi. O‘quvchi bu kabi ko‘nikmadan so‘ng testda aslo chalkashliklarga duch kelmaydi.

XULOSA

Ushbu tadqiqot Interaktiv Reading metodikasining an’anaviy lug‘at bilan ishlashdan ko‘ra sezilarli darajada samarali ekanligini isbotladi. Lug‘at tuzog‘idan chiqish o‘quvchilarda ijobiy o‘zgarishlarni paydo qildi.

Tajribadan huni takidlash kerakki til o‘rgatuvchi o‘qituvchilar dars jarayonida matni kamida ikki marta lug‘atsiz o‘qishni talab qilishlari, notanish so‘zlarni esa morfologik va sintaktik ishoralar orqali "topish" mashqlarini ko‘paytirishlari kerak. Lug‘atdan faqat matn tahlili yakunida, gipotezalarni tekshirish uchun foydalanish maqsadga muvofiq.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Nation, I. S. P. (2001). Learning Vocabulary in Another Language. Cambridge University Press.

2. Krashen, S. D. (1989). We acquire vocabulary and spelling by reading: Additional evidence for the input hypothesis. *The Modern Language Journal*.

3. Smith, F. (2004). *Understanding Reading: A Psycholinguistic Analysis of Reading and Learning to Read*. Lawrence Erlbaum Associates.